

O‘YIN ASOSIDAGI TADQIQOT FAOLIYATINING BOLALAR TAFAKKURIGA TA’SIRI

Axmedova Gulrux Rustam qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda o‘yin asosidagi tadqiqot faoliyatining pedagogik va psixologik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin faoliyati, tadqiqot faoliyati, tafakkur, maktabgacha yosh, mustaqil fikrlash, bilish jarayoni, pedagogik yondashuv.

Аннотация. В данной статье освещается педагогическое и психологическое значение исследовательской деятельности на основе игры в развитии мышления детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: игровая деятельность, исследовательская деятельность, мышление, дошкольный возраст, самостоятельное мышление, познавательный процесс, педагогический подход.

Abstract. This article highlights the pedagogical and psychological significance of research activities based on play in the development of thinking in preschool children.

Keywords: game activity, research activity, thinking, preschool age, independent thinking, cognitive process, pedagogical approach.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida bolani shaxs sifatida rivojlantirish, uning tafakkurini faollashtirish va bilishga bo‘lgan ehtiyojini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolaning tafakkuri faol rivojlanib, atrof-muhitni anglashga bo‘lgan tabiiy qiziqishi kuchayadi. Shu sababli ta’lim jarayonida bolalar uchun eng qulay va samarali faoliyat shakli bo‘lgan o‘yin asosidagi tadqiqot faoliyatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘yin bolalar hayotining yetakchi faoliyati bo‘lib, u orqali bola atrofdagi voqelikni o‘rganadi, tajriba orttiradi va o‘z fikrini ifodalashga harakat qiladi. Tadqiqot faoliyati esa o‘yinining mazmunini boyitib, bolaning tafakkur jarayonlarini yanada chuqurlashtiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalar tafakkurini rivojlantirish masalasi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu dasturda bolalarning bilishga qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash, kuzatish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yin asosidagi tadqiqot faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan.

“Ilk qadam” dasturiga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bilim berish jarayoni majburiy o‘qitish shaklida emas, balki o‘yin, tajriba va izlanishga asoslangan faoliyat orqali tashkil etilishi belgilangan. Ayniqsa, tabiiy hodisalarni kuzatish, buyumlarning xossalarini o‘rganish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashga yo‘naltirilgan o‘yinli topshiriqlar bolalar tafakkurining faollashuviga xizmat qiladi.

Dasturda keltirilgan kompetensiyaviy yondashuvga ko‘ra, o‘yin asosidagi tadqiqot faoliyati orqali bolalarda quyidagi tafakkur jarayonlari rivojlanadi: mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish; mustaqil qaror qabul qilish; tahlil va sintez qilish; umumlashtirish va taqqoslash; taxmin qilish va natijani oldindan ko‘ra bilish. Masalan, dasturda tavsiya etilgan “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar shunday bo‘lsa nima bo‘ladi?” kabi savollarga asoslangan o‘yin-tadqiqot mashg‘ulotlari bolalarni faol fikrlashga undaydi. Bunda bola oddiy ijrochi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida ishtirok etadi. Bu esa tafakkurning ijodiy va tanqidiy shakllarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Shuningdek, dasturda o‘yin-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda pedagogning yo‘naltiruvchi va hamkorlik qiluvchi roli muhim deb qaraladi. Tarbiyachi bolaga tayyor bilim bermaydi, balki savollar, muammoli vaziyatlar va qiziqarli o‘yinlar orqali uni mustaqil izlanishga yo‘naltiradi. Natijada bolalarda bilimga nisbatan barqaror qiziqish, tafakkur faolligi va o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘yin asosidagi tadqiqot faoliyati -bu bolalarning o‘yin jarayonida kuzatish, solishtirish, tajriba o‘tkazish va xulosa chiqarish orqali bilimlarni egallashiga qaratilgan faoliyat turidir. Bunda o‘yin vosita sifatida qo‘llanilib, tadqiqot esa bolaning bilish faoliyatini faollashtiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Mazkur faoliyatda bola tayyor bilimni emas, balki o‘z tajribasi asosida yangi tushunchalarni shakllantiradi. O‘yin jarayonida yuzaga keladigan savollar va muammolar bolani fikrlashga, taxmin qilishga va o‘z qarorini asoslashga undaydi. O‘yin asosida tashkil etilgan tadqiqot faoliyati bolalar tafakkuriga kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. Avvalo, bolalarda analitik tafakkur rivojlanadi, ya‘ni ular predmet va hodisalarni alohida belgilariga ko‘ra tahlil qilishni o‘rganadilar. Shuningdek, mantiqiy tafakkur shakllanib, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish ko‘nikmalari rivojlanadi.

O‘yin jarayonida bolalar mustaqil ravishda qaror qabul qiladi, muammoli vaziyatlarga duch keladi va ularga yechim topishga harakat qiladi. Bu holat ijodiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bola o‘z fikrini erkin ifodalaydi, xatolardan qo‘rqmay tajriba qiladi va natijani baholaydi. O‘yin asosidagi tadqiqot faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Tarbiyachi o‘yin jarayonini to‘g‘ri yo‘naltirishi, bolalarda qiziqish uyg‘otuvchi muammoli vaziyatlar yaratishi lozim. Eng muhimi, bolaga tayyor javob bermasdan, uni mustaqil fikrlashga undashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, o‘yin asosidagi tadqiqot faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Ushbu faoliyat orqali bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, ijodiy yondashuv va bilishga qiziqish ko‘nikmalari shakllanadi. O‘yin va tadqiqot faoliyatining uyg‘unligi bolaning shaxsiy rivojlanishini ta‘minlab, uni keyingi ta‘lim bosqichlariga puxta tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. 2022 yil.
2. Sh.Sodikova Maktabgacha pedagogika. Toshkent 2017 yil.